

## **EKOLOGIK BILIMLARNI RIVOJLANTIRISH VA UNING TA`LIM TIZIMIDAGI AHAMIYATI HAQIDA AYRIM FIKR-MULOHAZALAR**

**Axmedov Mirsharif Ruzibayevich**  
“FORISH-EKOSFERA” MCHJ direktori

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada ta’lim muassasalarida ekologik bilimlarni rivojlanterish zaruriyati va uning ta’lim tizimidagi ahamiyati to‘g‘risida bayon qilingan. Zero, o‘z kelajagiga jiddiy xavf solayotgan ekologik muammolarni hal qilish uchun butun insoniyatning birgalikda, bahamjihat harakat qilishi bugungi davrning kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb masalalaridan biri ekanligi haqida fikr-mulohazalar qilingan.*

**Kalit so‘zlar:** *jamiyat, tabiat, inson, ekologiya, muhit, atmosfera, bilim, dunyoqarash, ekologik muammo.*

Hammamizga ma'lumki, jamiyat va tabiat, inson va u yashab turgan muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir muammosi - insoniyatning abadiy muammolaridan biridir.

Qadimgi dunyo afsonalaridan birida ta’kidlanishicha, tabiat bilan abadiy kurashlarda inson charchaydi, ya’ni u issiq va sovuqdan, xavf-xatarlar, halokatlar, zilzilalar va azobli mehnatlardan rosa qiynaladi.

Shunda inson Olimp tog‘iga kelib Tangriga yolvoradi: “O, Tangri, nahotki men butun umr qiyalsam? Nahotki men hech qachon xotirjam ovqatlanib, issiq joyimda tinchgina yashay olmayman? Nahotki bu la’nati tabiat bilan abadiy kurashaman?”

Tangri insonning munojatini eshitib, unga javob aylaydi: “Mayli, sen nimani hohlasang, o‘sha amalga oshadi: sen go‘zal saroyda yashaysan, yaxshi yeb ichasan, yaxshi kiyim kiyasan. San’atning istagan turi bilan mashg‘ul bo‘lasan: ashula aytasan, rasm chizasan, haykallar yasaysan. Ammo sen tug‘ilgan va o‘sib ulg‘aygan yeringdan hamda la’natlayotganing tabiatdan butunlay voz kechishing kerak”.

Inson bunga rozi bo‘ladi va Tangri uning istaklarini bajo keltiradi. Azob-uqubatli zahmatlardan ozod bo‘lgan inson endi kun bo‘yi zavqlanib ashula aytadi, rasmlar chizadi va loydan haykalchalar yasaydi. Biroq vaqt o‘tgan sayin inson mungli qo‘shiqlar kuylay boshlaydi. U endi ko‘zi hamma narsani ko‘rishini, biroq qalbi go‘zallikni ko‘rmasligini, qulog‘i musiqani eshitishini, ammo qalbi uni eshitmasligini, so‘zlarida ham qalbining tafti yo‘qligini va shuning uchun hech kimga kerak emasligini sezsa boshlaydi.

Shunda inson jismini to‘ydirib, o‘z qalbini o‘ldirishini yoxud tuproqsiz daraxtning qurigani kabi insonning qalbi ham ona Yersiz qurib-qaqshashini tushunib yetadi. Inson endi unga qamoqdek tuyulgan saroy devorlariga boshini uradi va jismsiz shamolga aylanadi.

O‘rmon, maydon yoki daryo sokin havolariga chiqsang, -deyiladi afsonada, - sen daraxtlardi barglarning o‘pishishlarini eshitasan, shamolning gullarni nozik silashini, uning daryo bilan latif o‘yinlarini ko‘rasan.

Shunday qilib, inson o‘zida tabiatga hamisha ma’naviy ehtiyoj sezadi. Biroq biz keyingi vaqtarda tabiatni o‘z istaklarimizga bo‘ysindirmoqchi bo‘ldik. O‘rmonlarni kesdik,

tabiat go’zalligini buzib, to‘g‘onlar, korxonalar qurdik, cho‘llarni o‘zlashtirdik va boshqa ishlar qildik. Tabiatga nisbatan g‘alabamizni tengsiz yutuq deb bildik. Endlikda esa hech qachon g‘alaba qilib bo‘lmaydigan, mutlaqo erkin tabiatga muhtoj ekanligimizni his etmoqdamiz. Ekologiya borgan sayin eng muhim va dolzarb muammo bo‘lib bormoqda. Insonni tabiatdan ajratib, qamoqqa aylangan baland-baland ko‘p qavatli uylar va asfal’t yo‘llar uning shaxsini ham buzmoqda.

Hozirgi vaqtida inson ilmiy-texnika inqilobi davrida yashamoqda. Inson hayotning tabiatga, tabiiy muhitga bog‘liqligi insoniyat tarixinining barcha bosqichlarida barqaror hodisa bo‘lgan. Ammo bu bog‘liqlik doimo o‘zgarib borgan, bugungi kunda esa ziddiyatli vaziyatga kirdi. Tabiatda bir vaqtlar unga go’zallik bag‘ishlagan hayvon turlari yo‘olib bormoqda. Sanoat chiqindilar, radioaktiv cho‘kindilar, to‘plangan uglevodorodlar suv va havoni ifloslantirmoqda. Bugungi kunda chuchuk suvning yetishmasligi, korxonalar hamda boshqa manbalar tufayli havoning ifloslanishi, tuproqning ishdan chiqishi, afsuski, tabiiy hodisaga aylandi. Demak, tabiatni “egallah” ma'lum darajada insoniyatning o‘z hayotiy faolyatining tabiiy asoslarini izdan chiqarishga olib keldi.

Mana shunday sharoitda ekologik tarbiyani kuchaytirish orqali odamlarda ekologik bilimlarni rivojlantirish muhim ahamiyatga egadir. Ekologik bilim insonning tabiat bilan o‘zaro munosabati sohasidagi e’tiqod va tushunchalarini o‘z ichiga oldi. Kishilar tabiatni tashkil etuvchilardan birining holati, tuzilishining o‘zgarishi boshqalarning holati va tuzilishining o‘zgarishiga olib kelishi, ya’ni tabiatda quvvat-axbor qayta taqsimlanib, muvozanat buzilishini va uning oqibatida turli halokatlar kelib chiqishini ilmiy asosda tushunmoqlari lozim. Ekologik bilimlar insonlar o‘zlarining hayoti va faoliyati hozirdagi va kelajakdagi bioqatlam bilan uzlusiz bog‘liqligini, tabiatni muhofaza etish zarurat ekanini, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish va har bir kishida atrof-muhitning holati uchun shaxsiy ma’suliyat hissini tarbiyalash, hayvonot va o‘simpliklar olamini muhofaza etish lozimligini anglab yetishlari uchun muhim shart-sharoit hisoblanadi.

Jamiyat kelajagi bevosita yoshlarga daxldor. Sivilizatsiya taraqqiyoti bugungi kunda mumkin va nomumkin narsalar o‘rtasidagi to‘siq-chejaralarni sidirib tashlamoqda. Bizning imkonimizda juda katta ilmiy texnikaviy qudrat va aqliy imkoniyatlar mavjudki, ular yer yuzida yashab o‘tib ketgan biror inson zoti ajdod-avlodlari qo‘lida bo‘lmagan. Yoshlar xuddi ana shu kuch qudratning sohibi bo‘lar ekanlar, o‘z kelajagini o‘zları yaratishini sira yoddan chiqarmasliklari zarur.

Shu o‘rinda turkiy adabiyotning yirik namoyondasi, atoqli qirg‘iz yozuvchisi Chingiz Aytmatovning “Manasning qanotli tulporida” nomli maqolasidan quyidagi satrlarni keltirib o‘tishni lozim topdik. Bu satrlar ekologik tarbiyaga qanday nuqtai-nazardan yondoshish lozimligini ko‘rsatib bersa ajab emas. “Agar inson bolalik chog‘laridanoq, o‘z tarbiyasining ilk bosqichlaridan boshlab tabiat bilan oshno tutinsa, men ishonch va umid bilan aytalolamanki, u yoshi ulg‘ayib, faol mehnat quchog‘iga kirgan paytlarida ham befarq vakilga aylana olmaydi, unga tabiat muhofazasi haqida, tabiatga oqilona munosabatda bo‘lishi borasida targ‘ibot-tashviqotning sira keragi bo‘lmaydi, uning o‘zi bu ishga ma’naviy

jihatdan tayyor bo'ladi. Tabiatni asrab-avaylash va sevishga o'rgatish, mening nazarimda, yosh ishchi avlodini tarbiyalash masalasining eng insonparvar jihatlaridan biridir".

Hozirgi sharoitda ishlab chiqarishni to'g'ri yo'lga qo'yish va insonparvarlik nuqtai-nazaridan kelib chiqib, tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni uyg'un holda tashkil etish o'ta muhim hisoblanadi. Maqsad insoning har taraflama va uyg'un rivojlanishi uchun yaxshi shart-sharoitlar yaratish, uning kelajagini ta'minlashdan iboratdir. Boshqacha aytganda, hozirgi zamonda ijtimoiy muammolarni hal etishning ekologik yo'nalishi - atrof-muhitga yaxshi munosabatda bo'lish, tabiatni muhofaza etish tadbirlarini amalga oshirish, odamlarda ekologik ong va ekologik madaniyatni rivojlantirish orqali ekologik xavfsizlikni ta'minlashdir.

Bugungi davr ekologik tarbiyani jamiyatda yo'lga qo'yilgan ta'lim-tarbiya tizimining ajralmas qismiga aylantirishni taqozo etmoqda. Ekologik tarbiya jamiyat hayotining barcha sohalariga kirib bormoqda.

Jumladan, jamiyatning muhim sohalaridan biri hisoblangan ta'lim sohada ham ekologik ta'lim-tarbiya muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai-nazardan, ta'lim tizimida olib borilayotgan ta'lim-tarbiya ishlarida ekologik tarbiya alohida ahamiyat kasb etadi. O'quvchi va talabalarda ekologik madaniyatning rivojlanishi bevosita ekologik ongning shakllanishi bilan bog'liq. Ekologik ongni shakllantirish va shu orqali ekologik madaniyatni yuksaltirish uchun talabalar bilan quyidagi amaliy ishlarni olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi:

-talabalarga o'qitilayotgan "Ekologiya" fanini o'qitish samaradorligini oshirish va zamon talablari darajasiga ko'tarish. O'rganilgan mavzularni mustahkamlash maqsadida savollarga javob berish tarzida suhbatlar o'tkazish, davriy matbuot materiallari asosida ma'ruzalar o'qish va atrof-muhit muhofazasi masalalariga bag'ishlangan tadbirlar haqida ma'umotlar berish kerak. Quyidagi mavzular bo'yicha munozara-mashg'ulotlari o'tkazish tavsiya etiladi: "Inson va tabiat", "Inson va suv", "Inson va hayvonat olami", "Inson va o'simliklar olami", "Inson va atmosfera", "Inson va yer", "Erning hozirgi va kelgusidagi holati" va boshqalar. Mavzular sayyoramiz tabiatini muhofaza qilish va uning o'zgarishi misolida talqin etiladi;

darslarda ekologik muammolarning mohiyati va bugungi kunda insoniyat kelajagiga solayotgan xavfini aks ettirgan fil'mlarni muntazam namoyish etish orqali ularning ekologik ongini o'stirib borish;

talabalar bilan olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarda muntazam ravishda ekologik muammolar va ularni keltirib chiqarayotgan salbiy oqibatlari to'g'risida bilim berib borish. Tarbiyaviy ishlar jarayonida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tabiatning muhofazasi va tabiat boyliklaridan oqilonaga foydalanish haqidagi qonunlari va Vazirlar Mahkamasining qonun talablarining bajarilishi to'g'risidagi qarorlariga tayanish lozim. Zero, ularda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish, ekologiya, tabiat muhofazasi haqidagi qonun va bilimlarni ilmiy-texnikaviy yo'llar bilan tarqatish va targ'ib etishni yaxshilash borasida zaruriy chora-tadbirlar belgilangan;

har bir talaba ongida tabiat va atrof-muhitni asrab-avaylash ma'suliyatini shakllantirish.

Xulosa qilib aytganda, o‘z kelajagiga jiddiy xavf solayotgan ekologik muammolarni hal qilish uchun butun insoniyatning birgalikda, bahamjihat harakat qilishi bugungi davrning kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb masalalaridan biridir. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlarning eng muhimlaridan biri-odamlar ongi va shuurida ekologik madaniyatni shakllantirishdir. Jumladan, ekologik madaniyatni o‘quvchi va talabalar dunyoqarashi va tafakkurining ajralmas qismiga aylantirish insoniyat kelajagiga tahdid solayotgan muammo-ekologik muammolarni hal qilish samaradorligini oshirishga qo‘silgan katta hissadir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. –T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2016. – 56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza 2016 yil 7 dekabry. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2016. – 48 b.
4. Tursunov X.T., Raximova T.U. Ekologiya. Toshkent. «Chinor» 2006 y.
5. Популярная экологическая энциклопедия Республики Узбекистан. В 4 томах Т., “Chinor ENK” 2008-2009.
6. Muxamedov I., Eshboyev E., Zakirova M. Mikrobiologiya, immunologiya va virusologiya. Toshkent. 2002. 519 b.
7. Kayumov A.A., Raxmonov R.N., Egamberdiyeva L.Sh., Xamrokulov J.X, Tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish. - T.: “Iqtisodiyot”, 2014.